

SSRINING XALQLARNI KO‘CHIRISH SIYOSATI VA UNING OQIBATLARI.

1-bosqich magistranti: Salimov Sherzod.

Ilmiy rahbar: dots.Hoshimova M.M.

Deportatsiya (lotincha deportatio - badarg‘a, surgun qilish) — jinoiy yoki ma‘muriy jazo chorasi sifatida davlatdan majburan chiqarib yuborish, haydash demakdir. 1920-40 yillardagi ommaviy qatag‘onlar davrida sobiq Ittifoqning ko‘p xalqlari deportatsiyaga duchor bo‘lgan edi. SSRI da xalqlarni deportatsiya qilish jarayoni etnik va ijtimoiy-iqtisodiy jihatlariga e‘tibor berilmay amalga oshirildi. Majburiy ko‘chirilgan xalqlar orasida: koreys, nemis, qalmiq, chechen, bolqor, qrim-tatarlar, mesxet turklari bor edi. Undan tashqari SSRI fuqarolari hisoblangan kazak, quloqlar – barcha millat vakillaridan, polyak, ozarbayjon, kurd, xitoy, rus, eronilar, yahudiy-eronilar, ukrain, moldovan, litva, latish, eston, grek, bolgar, arman, kabardin, turk, tojik va boshqa millatlarni tashkil etardi.

1930 – yillar o‘rtalarida SSRI ning yirik shahar va chegara hududlarida “ijtimoiy xavfli” unsurlardan mamlakat hududini tozalash ishlari amalga oshirildi. Bu boradagi birinchi “tozalash” ishlari Leningrad chegara hududlarida o‘tqazildi. VKP (b) Leningrad bo‘limi obkomining 1935 – yil 4 martdagi qaroriga muvofiq ko‘chirish amalga oshirildi. Unga asosan mamlakatning shimoli-g‘arb hududida yashovchi finlar ko‘chirilishi kerak edi. 22 km lik chegara hududida istiqomat qiluvchi finlarning 3547 ming oilasi ko‘chirilishi belgilandi. 1935 – yil 1 – 25 aprel oylarida Tojikistonga (1000 ta oila), Qozog‘iston va G‘arbiy Sibirga (Kareliya hududidagi 316 ming oila) ularning ko‘p qismi ko‘chirildi. Fin millatiga mansub 22 ming kishi Vologodsk viloyatiga ko‘chirildi.

1935 – yilning 20 fevraldan 10 martgacha bo‘lgan davrda Ukrainada ham ko‘chirish ishlari amalga oshirildi. Ukraianing chegara viloyatlari hisoblangan Kiyev va Vinnis hududlarida istiqomat qiluvchi 40 mingga yaqin xalqlar ko‘chirildi. Bu hududdan ko‘chirilgan xalqlarning 60 % ni polyak va nemis millatiga mansub xalqlar tashkil etardi. 1936 – yilning yanvar oyida Ukraina va Qozog‘iston NKVD (Ichki ishlar xalq komissarligi) boshqarmalari 15 mingga yaqin polyak va 45 ming nemis xo‘jaliklarini Ukrainaning Polsha bilan chegara viloyatlaridan Qozog‘istonga ko‘chirishni rejalashtirdi.

MK KP (b) va Qozog‘iston XKK ning 1936 – yil 16 – fevraldagi qaroriga ko‘ra “ko‘chirilgan ukrainlar” Qozog‘iston janubidagi viloyatlarga 5500 oila, Olma-Ota va Qarag‘anda viloyatlariga 3000 oila, Sharqiy – Qozog‘istonga – 2000 oila, Oktyubega 100 oilani joylashtirish mo‘ljallanga edi. 1936 – yil iyun va sentabr oylari davomida polyak va nemis xalqlarining ko‘chishi davom etib ularning soni 14048 ga yetdi.

1937 – yilning iyul oyida O‘rta Osiyo va Kavkaz Oldi chegara viloyatlarida maxsus taqiqlangan hududlar tashkil etildi. Taqiqlangan hududlar mahalliy aholini ko‘chirishni amalga oshirardi. Gruziya, Armaniston, Ozarbayjon, Turkmaniston, O‘zbekiston va Tojikistonning 40 dan ortiq chegara viloyatlarida ishonchsiz va shubhali unsurlardan qutulish ishlari amalga oshirildi. Chegara viloyatlarda yashagan 1325 mingga yaqin kurdlar Qirg‘iziston va Qozog‘istonga ko‘chirildi. 1937 – yilning

oxirlariga kelib Armaniston, Ozarbayjon va Qozog'iston (Olma-Ota va Janubiy Qozog'iston) ga 1121ta kurd va arman oilalari majburan ko'chirilgan edi.

1937 – yilning o'zida boshqa frontdagi ko'chirish ishlari ham amalga oshirildi. Uzoq Sharqning chegara hududlarida istiqomat qiluvchi koreys millati ommaviy ravishda surgun qilindi. Bunga bahona bo'lib 1937 – yil 23 – aprelda “Haqiqat” gazetasining Uzoq Sharq hududlarida yapon josuslarining faoliyati kuchaygani ularning bu hududdagi vakillari koreys va xitoy millatiga mansub kishilar ekanligi haqidagi maqolasi bo'ldi. Natijada Davlat Mudofa Qo'mitasining 1937 – yil 21 – avgustdagi qaroriga ko'ra Uzoq Sharqning chegara hududlaridagi koreys millatiga mansub xalqlarni ko'chirish amalga oshirildi. Ko'chirishni to'liq amalga oshirish ishlari 1938 – yil 1 yanvarga qadar tugatish belgilandi. O'sha yilning 25 oktabriga ko'ra 36 442 koreys xo'jaligi yoki 171 781 kishi ko'chirildi. Koreyslar bilan birgalikda 7 mingga yaqin xitoyliklar, nemis, polyak va pribaltikaliklar deportatsiyaga duchor bo'ldi.

Aksariyat ko'chirib keltirilgan xalqlar Qozog'iston hududiga joylashtirildi. Umumiy olganda ularning soni 20 170 oila yoki 95 526 kishi edi. Ulardan 9350 kishi Qozog'istonning shimoliga joylashdi. O'zbekiston qishloq va shaharlariga ham bir qancha xalq vakillari ko'chirildi. Ko'chirilgan xalqlar soni 16 272 oila yoki 76 525 kishini tashkil etardi.

1937-1938 yillar oralig'ida “tozalash” ishlari SSRI ning g'arbiy va sharqiy, shuningdek janubiy Afg'oniston, Eron, Turkiya bilan chegara hududlarda o'tqazildi. 1938 – yil 19 – yanvarda Ozarbayjonning Eron bilan chegara viloyatlarida istiqomat qiluvchi 2000 ga yaqin oila yoki 6000 eronliklar Qozog'iston janubi hamda Olma-Ota viloyatiga ko'chirishga qaror qilindi.

1939 – yil 1 sentabrda Germaniyaning Polshaga urush e'lon qilishi bilan Ikkinchi jahon urushi boshlandi. 1939 – yil 17 sentabrda rus askarlari Polshaning sharqiy hududlariga kirib keldi. 1940 – yildan boshlab polyaklarni ommaviy ko'chirish boshlandi. Polyaklarni ko'chirish uch bosqichda: 1940 – yil 10 – fevral, 13 aprel va 29 iyun va oxirgisi 1941 – yil may va iyun oylarida amalga oshirildi. 1940 – yil 275 ming kishi, ulardan 139-141 mingi fevralda, 61 mingi aprelda va 75 mingi yoz oylarida deportatsiya qilindi.

Polyaklarning ko'pchiligi SSRI ning shimoliy Yevropa qismiga, Ural va Sibirga jumladan Komi, Kirov, Perm, Vologodsk, Arxangelsk, Ivanovsk, Yaroslavsk, Sverdlovsk va Omsk viloyatlariga hamda Oltoy va Krosnoyarsk o'lkalariga ko'chirildi. Polyaklarning ba'zi qismi Shimoliy Qozog'iston va O'zbekistonga ko'chirildi. Polyaklarni ko'chirish jarayoni Gitlarning SSRI ga hujumiga qadar davom etdi. 1940 – yil fevraldan 1941 – yilgacha bo'lgan vaqt mobaynida ko'chirilgan polyaklarning soni 320 ming kishigacha yetdi. Polshada boshlangan Ikkinchi jahon urushiga qadar SSRI ga ko'chirilgan xalqlarning soni belorus, litva va yahudiylardan tashqari 1,6-1,8 mln kishini tashkil etardi.

1941 – yilning yoz oylarida ko'chirish ishlari Pribaltika, Bessarabiya va Shimoliy Bukovina (Ruminiya) hududlarida amalga oshirildi. Ko'chirilgan xalqlarning soni 380 – 390 ming kishiga yetardi. Ularning ko'pchiligi SSRI ning Shimoliy Yevropa qismiga, Ural, G'arbiy va Sharqiy Sibir, Qozog'iston va O'zbekiston hududlariga joylashtirildi.

Ulug' vatan urushi davrida nemis millatiga nisbatan qatag'on siyosati o'tqazildi. Bu ular kurashayotgan Gitler Germaniyasi hududidagi nemis millatining SSRI da istiqomat qiluvchi vakillariga qarshi qaratilgan edi. SSRI hududida istiqomat qiluvchi nemis millatlari "kollobrant – fashistlar bilan hamkorlik qilish, xoinlik" da ayblandi. 1939 – yilgi aholini ro'yhatga olish ma'lumotlariga qaraganda SSRI hududida 1 427 222 nemis bo'lib, ularning 1/5 qismi shaharlarda istiqomat qilgan. Ularning ko'pchiligi Rossiya (862,5 ta) va Ukrainada (392,7 ta), Qozog'istonda (92,7), Ozarbayjonda (23,1) va Gruziyada (20,5) edi. 1941 – yil sentabr oyidan boshlab Moskva va Rostov viloyatlaridagi nemislarni Qozog'istonga ko'chirish ishlari amalga oshirildi. Shimoliy Kavkaz va Tulski viloyatlaridagi nemislar, Krosnoyarsk va Novosibirskka ko'chirildi. Oktabr oyida Voronej hududidagi nemislarni Novosibirsk va Omska, Kavkaz Oldi nemislarini esa Qozog'iston va Novosibirskka ko'chirish ishlari amalga oshirildi.

1941 – yil noyabrda Qalmiqiya va Qo'ybeshov viloyatlarida istiqomat qiluvchi nemis millatiga mansub kishilarni ko'chirish qaroriga muvofiq, chegara hududida istiqomat qiluvchi nemislar Qozog'istonga ko'chirildi. Shunday qilib, nemislarni ko'chirib o'tqazish ishlari butun SSRI bo'ylab 98 % ga bajarildi. Mo'ljallangan 873 578 nemislardan 856 168 yaqini ko'chirib o'tqazildi. 1942 – yilga kelib "maxsus aholi yashash joylarida" ularning soni 1031,3 mingni tashkil etardi.

Ikkinchi jahon urushi davrida SSRI da istiqomat qiluvchi xalqlarning yolg'on ayblovlari bilan ko'chirilishi, qamoqqa olinishi, sudsiz otib tashlanishi ommaviy ravishda davom etdi. Shu jumladan qalmiq va qorachoy xalqlariga nisbatan yuqoridagi ayblovlar qo'yildi. 1943 – yil 12 va 14 oktabr qarorlariga ko'ra qorachoy xalqlari ko'chirildi. Qozog'iston janubi va Jambul viloyatiga 45 ming, Qirg'izistonga 23 ming, qolgan qismi Ikutsk va Tojikistonga ko'chirildi. 1943 – yil 27 – 28 dekabr SSRI Oliy Kengashi Prezidiumining qaroriga muvofiq Qalmiqiya ASSR da xalqlarni ko'chirish amalga oshirildi. Oltoy va Krosnoyarsk o'lkasiga hamda Omsk va Novosibirsk o'lkalariga qalmiq xalqlarini ko'chirish rejalashtirildi va amalga oshirildi.

1944 – yil 26 – fevralda Beriyaning NKVD ga bergan buyrug'iga muvofiq bolqor xalqlarini ko'chirish amalga oshirildi. Bolqor xalqlarini ko'chirishning oxirgi muddati 10 martdan kechikmasligi belgilandi. 37 044 nafar bolqor xalqlari ko'chirildi, ular asosan Qirg'iziston (60 % i) va Qozog'istonga kelib joylashdi.

1944 – yil may-iyun oylarida kabardin xalqlarini ko'chirish to'g'risida qaror qabul qilindi. 1944 – yil 20 – iyunda 2500 ga yaqin kabardinliklar xoinlikda ayblanib Qozog'istonga surgun qilindi. 1944 – yil Qrim ozod etilgandan so'ng uning hududini antisovet unsurlaridan "tozalash" ishlari NKVD zimmasiga yuklandi. 1944 – yil 10 – mayda Beriyaning qrim-tatarlarni ko'chirish masalasida Stalinga telegramma yubordi. Unga ko'ra 1944 – yil 2 aprel, 11 va 21 may oylarida ularning ko'chirilishi belgilandi. Ikki oy davomida 191 014 (47 ming oila) qrim-tatarlar mamlakat hududidan ko'chirildi. 37 ming (151 083) ta qrim-tatar oilalari O'zbekistonga olib ketildi. O'zbekistonning aholi soni zich hududlariga xususan Toshkent (56 ming kishi), Samarqand (32 ming kishi), Andijon (19 ming kishi), Farg'ona (16 ming kishi) viloyatlariga joylashtirildi. Ularning qolganlari Ural, Udmurtiya va SSRI ning Yevropa qismiga borib o'rnamashdi.

1944 – yil bahorida SSSRI qo‘shinlari Gruziyada g‘alabali yurishlarni davom ettirdi. Aynan shu yilda Tbilisida istiqomat qiluvchi 600 ga yaqin kurd va ozarbayjon oilalari (3240 kishi) Gruziyaning Salkin, Borchalins va Korayaziskiy hududlariga ko‘chirildi. 1944 – yil 28 noyabrda Beriyaning Stalinga yuborgan ma‘lumotnomasida Gruziya hududida istiqomat qiluvchi Mesxete turklarning Turkiyadagi qondoshlari bilan yaqin aloqada ekanligi, ularning ozodlikka intilayotgani va qo‘poruvchi guruhlar tuzganligi haqidagi fikrlar uchraydi. Beriyaning 24 – iyuldagi Stalinga yuborgan xatida turk, kurd va xemshillarning 16 7000 ga yaqin xo‘jaligni Gruziyaning chegara hududlaridan Qozog‘iston, Qirg‘iziston va O‘zbekistonga ko‘chirish taklif etiladi. 1944 – yil 31 – iyulda qaror qabul qilinadi. Unga ko‘ra 76 021 turk, 8694 kurd va 1385 xemshillar ko‘chirilishi mo‘ljallangan edi. Tukr–mesxetlar asosan Gruziyaning tarixiy Mesxet-Djaxavet viloyatida istiqomat qilib kelishgan. 15 noyabr ertalab ko‘chirish ishlari boshlandi. Uch kun ichida 90 mingdan 116 mingga yaqin kishi ko‘chirilgani haqida ma‘lumotlar mavjud. Ularning ko‘pchiligi O‘zbekistonga (53 133 kishi) Qozog‘istonga (28 598 kishi) va Qirg‘izistonga (10 546 kishi) kelib joylashdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Павел Полян. Не по своей воле... История и география принудительных миграций в СССР. Монография
2. Павел Полян. Любимые игрушки диктатора. Размышления о советской депортационной политике // Индекс/Досье на цензуру, № 14, 2001
3. Вшивцева Ю. В., Федченко Е. В. Влияние политических репрессий и депортаций на изменение этносоциальной ситуации на Кубани в предвоенный период // Былые годы, № 3 (17), 2010
4. Эдиев Д. М. Демографические потери депортированных народов СССР. — Ставрополь, 2003.
5. Николай Бугай. Депортация народов
6. Дорогой горьких испытаний: К 60-летию депортации корейцев России / Сост. В. В. Тянь. Москва, Экслибрис-Пресс. 1997.
7. Книга памяти. Архивные списки депортированных российских корейцев в 1937 году / Сост. Пак Чон Хе, О. А. Ли. Москва. 1997.
8. Белая книга о депортации корейского населения России в 30-40-х годах / Сост. Ли У Хе, Ким Ен Ун. Москва, Московская конфедерация корейских ассоциаций. 1997.
9. Корейцы: жертвы политических репрессий в СССР (1934—1938) / Сост. С. Ку-Дегай, В. Д. Ким. Москва, Возвращение. 2007.

SamDU tarix fakulteti “Umumiy tarix” kafedrasi professor-o‘qituvchilari, magistrant va iqtidorli talabalarning 2013-yildagi ilmiy tadqiqot ishlari yakunlariga bag‘ishlangan ilmiy maqolalar to‘plami. Samarqand 2014. 85-90 b.